

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2022

2-son

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

	TAHRIRIYAT	
	4	Ilm izlash, ijod qilish – inson kashf etgan amallar, faoliyatlar ichida eng serzahmati
	TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI	
N.Abdullayeva	5	Pedagogik mas'uliyatni shakllantirish – kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning integral komponenti sifatida
A.Rasulov	10	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida zamonaviy ta'lim klassteri sharoitida iqtisodiyot bilim asoslari fani o'qitishning zarurligi
D.Axmadjonov	13	Akseologik yondashuv asosida bag'rikenglik kompetensiyasini rivojlantirish
T.Sultonov	17	Ilk boshlang'ich ta'lim pedagogikasining muhim jihatlari va ularning izohlari
S.Toshboyev	21	Ta'limda innovatsiyalar va ularning tahlili
	TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI	
J.Ravshanov	25	O'quvchilarda tahliliy kompetensiyalarni shakllantirishda an'anaviy ta'lim metodlaridan foydalanish
K.Abdullayev	27	Adabiyot darslarida tarix, tasviriy san'at, musiqa fani materiallaridan foydalanishning pedagogik-psixologik asoslari
H.Bakiyeva	31	Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini shakllantirish
M.Mamadjanova	34	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini mantiqiy masalalarni yechishga metodik tayyorgarligini ta'minlash
G'.Nabiyev	38	Maktab o'quvchilarida tadbirkorlik qobiliyatlarini shakllantirish
Z.Umarova	40	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish metodikasi
D.Ismoilova	44	K.D.Ushinskiyning pedagogik merosini o'qitish interfaol metodlar
	TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT	
Sh.Qo'qonboyeva	47	Bo'lajak fizika o'qituvchilarining boshlang'ich kasbiy kompetentligining shakllanganlik darajasini aniqlash
	ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI	
R.Musurmonov A.Suyarov	52	Ta'lim jarayonida zamonaviy yondashuv imkoniyatlari
F.Maxmudova	56	Ta'limda integrativ yondashuvni tashkil etish pedagogik muammo sifatida
D.Ximmataliyev B.Xayridinov	59	Masofaviy ta'limda zamonaviy axborot va kommunikatsiya vositalarining ahamiyati
S.Qorayev N.Tirkashev	62	Kompetensiyaviy ta'lim – o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarida sifat uyg'unligining asosi
A.Abdullayev	65	Professional ta'lim tizimida arxitekturaviy loyihalashni o'rgatishda interfaol metodlardan foydalanish
I.Qodirov	68	Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida tarix darslarinin samarali tashkil etish

S.Akbarova	71	Kredit-modul tizimida ta'limning samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarni qo'llash
Y.Sultanov	76	3D texnologiyasi asosida "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish" fanini o'qitishning metodikasini takomillashtirish
	MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI	
B.Narzullayeva	80	Millatlararo do'stlik aloqalarini rivojlantirishda mahallaning o'rni
S.Muxammadiyeva	83	Talabalarni tarbiyalashda Ahmad Yassaviyning e'tiqod tarbiyasi haqidagi fikrlaridan foydalanish
	TA'LIMDA MENEJMENT	
F.Jumanova	87	Yangi O'zbekistonda bo'lajak o'qituvchilarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirish mazmuni
	HUQUQ VA HUQUQIY TARBIYA	
M.Jo'raxo'jayev	90	Imkoniyati cheklangan bolalar uyda yakka tartibdagi ta'limni tashkil etishning me'yoriy-huquqiy asoslari
	MAKTABGACHA TA'LIM	
G.Nazirova V.Ganiyeva	95	Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarida ijtimoiy kompetensiyani shakllantirish yo'llari
D.Ganiyeva	99	Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy rivojlantirishda intellektual o'yinlarning ahamiyati
S.Achilova	103	Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy fazilatlarini rivojlantirish xususiyatlari
D.Xalkuziyeva	107	Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga axloqiy-irodaviy tayyorlashning pedagogik va psixologik jihatlari
G.Mo'minova	110	Maktabgacha yoshdagi bolalar axloqiy va irodaviy fazilatlarini tarbiyalashda o'yinning ahamiyati
Sh.Ibragimova	114	Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv, intellektual va shaxsiy rivojlanish sohalar
F.Abdug'opirova	119	Kognitiv faoliyatni rivojlantirish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlash – pedagogik muammo sifatida
	PSIXOLOGIYA	
N.Abdullayeva	124	O'smir o'quvchilarda mustaqillik fenomeni va uning konformlilik orqali tushuntirilishi
	QIYOSIY PEDAGOGIKA	
K.Abrorxonova D.Yunusova	127	O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida Finlandiya tajribasidan foydalanish istiqbollari
	СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ	
Г. Тожибоева	131	Диагностика профессиональной компетентности будущих учителей начальных классов вопросах развития речи школьников
	МЕНЕЖМЕНТ В ОБРАЗОВАНИИ	
A. Margupov	138	Управленческая деятельность – как необходимая составная часть руководителя

D.M ISMOILOVA,

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

K.D. USHINSKIYNING PEDAGOGIK MEROSINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLAR

Annotatsiya

Ushbu maqola oliy pedagogik ta'lim muassasalari talabalari va amaliy faoliyatdagi o'qituvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda K.D.Ushinskiyning pedagogik merosini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar. Interfaol, pedagog, ta'lim, tarbiya, modul, dastur, metod, nazariy, amaliy, tajriba.

Статья предназначена для студентов высших педагогических учебных заведений и преподавателей практической деятельности, в ней даны рекомендации по использованию интерактивных методов в преподавании педагогического наследия К.Д. Ушинского.

Ключевые слова. Интерактив, педагог, образование, воспитание, модуль, программа, метод, теоретический, практический, опыт.

The article is intended for students of higher pedagogical educational institutions and teachers of practical activities; it provides recommendations on the use of interactive methods in teaching the pedagogical heritage of K.D. Ushinsky.

Key words. Interactive, teacher, education, upbringing, module, program, method, theoretical, practical, experience.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida jahon pedagogik merosi va xalqaro ta'lim dasturlarini o'rganish, ulardagi tajribalarni milliy ta'lim tizimiga joriy etish jarayoni kechmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi "Pedagogik ta'lim sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida quyidagi vazifalar belgilangan:

- milliy pedagogik ta'lim jarayonini xalqaro pedagogik tajribalar asosida rivojlantirish;
- milliy ta'lim tizimiga xalqaro ta'lim dasturlari talablarini joriy etish;
- jahon xalqlari pedagogik mutafakkirlarining pedagogik merosini chuqur o'rganish.

Mazkur vazifalarning ijrosi jarayonida pedagogik ta'limni rivojlantirish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Shu jihatdan "Pedagogika" fanining "XIX asrning 2-yarmi–XX asrda jahon pedagogika fanining rivoji" modulini o'qitish va uning vositasida jahon xalqlari pedagoglarining merosini chuqur o'rganish muhim ahamiyatga ega. Mazkur vazifalar va ahamiyatlardan kelib chiqib, biz tomonimizdan "XIX asrning 2-yarmi–XX asrda jahon pedagogika fanining rivoji (K.D.Ushinskiyning pedagogik merosi) modulini interfaol ta'lim metodlari asosida o'qitish" muammosi mavzusi tanlandi. Ushbu muammo nazariy va amaliy jihatdan tahlil etiladi, modulni o'qitishda rus mashhur pedagogi Konstantin Dimitrevich Ushinskiyning (1824-1870) pedagogik merosidan foydalanishning interfaol metodlari ishlab chiqiladi.

Ushinskiy 1857-yildan boshlab "Tarbiya jurnali" ("Журнал для воспитания")da, so'ngra "Xalq maorifi jurnali"da juda ko'p sarmazmun maqolalar e'lon qildi. 1860-yilda u "Xalq maorifi jurnali"ning muharriri qilib tayinlandi. Ushinskiy 1861-yilda o'zining "Bolalar dunyosi" ("Детский мир") nomli o'qish kitobini nashr ettirdi. Bu kitob o'sha yilning o'zidayoq ikki marta chop etildi. Chunki kitobda bolalarga rus va Yevropa

xalqlarining ta'lim-tarbiyaga oid xalq og'zaki ijodidan hikoyalar, maqollar, matallar va ertaklar jamlangan edi. Unda Ushinskiy ilk bor bolalarning jismoniy, ruhiy va ma'naviy xususiyatlarini hisobga olib, materiallarni joylashtirgan edi.

Mazkur o'rinda K.D.Ushinskiyning pedagogik merosini bu modul vositasida o'qitishning interfaol metodlariga e'tiboringizni tortamiz.

"Interfaol" so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, "o'zaro, harakat va birgalikdagi faollik" ma'nolarini anglatadi³. Interfaol metod ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchining o'zaro teng muloqoti hamda dars jarayonidagi keng faolligiga asoslanadi. Bu metod ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi va bu orqali ularning erkin fikrlar ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qiladi. K.D.Ushinskiyning pedagogik merosini o'rganishda quyidagi interfaol metodlardan foydalanish kutilgan samarani beradi:

1. Mustaqil ta'lim metodi. Bu interfaol metodga ko'ra, muayyan mavzu matni qisqa ravishda tushuntiriladi va mavzuni o'zlashtirishga doir mustaqil ta'lim topshiriqlari beriladi. Talaba ana shu topshiriqlarni bajarish jarayonida mavzuni o'zlashtiradi va bu o'qituvchi tomonidan baholanadi. Shu jihatdan quyidagi mavzuning interfaol metod asosida o'qitilishiga e'tibor bering:

Mavzu: Axloqiy tarbiya maqsadlari va vositalari. Ushbu mavzu bo'yicha K.D.Ushinskiyning qarashlari tushuntiriladi. Unga ko'ra, pedagog olim tarbiya ishidagi turli vositalar orasida axloqiy tarbiyaga katta e'tibor berib, deydi: "Tarbiyaning asosiy vazifasi axloqiy jihatdan ta'sir etishdan iboratdir, bu aqlni umuman o'stirish, boshni bilimlar bilan to'ldirishdan ko'ra ham muhimroqdir". Mazkur fikr pedagogik mutaxassislar uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini eslab qolish joiz.

Axloqiy tarbiya bolalarda odamlarga hurmat va muhabbat bilan qarashni, ularga nisbatan samimiy, xayrixoh va adolatli munosabatda bo'lishni o'stirishi kerak.

Ushinskiy ko'r-ko'rona, tayoq intizomiga qarshi norozilik bildirib, "Eski maktabda intizom nihoyatda g'ayritabiiy asosga yoki mukofotlar va jazolar ulashib beruvchi o'qituvchidan qo'rqish asosiga qurilgan edi. Bu qo'rquv bolalarni zararli holatlarga: sustkashlikka, sinf doirasidagi zerikishga va ikkiyuzlamachilikka olib keldi"⁴ deb u bolalarga nisbatan insoniy munosabatda bo'lishni talab qiladi.

Ushinskiy egoistik, mansabparastlik, bekorchilik, g'arazgo'ylik, munofiqlik singari nuqson va kamchiliklarni qattiq qoralaydi. Olimning fikricha, axloqiy tarbiyaning vositalari quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

1. Ta'lim (axloqiy tarbiyada kitob va darsliklarni o'rni).
2. O'qituvchining shaxsiy namuna bo'lishi (Ushinskiyning obrazli ifodalashicha, "bu narsa yosh qalb uchun quyoshning barakali nuridirki, uni hech bir narsa bilan almashtirib bo'lmaydi").
3. E'tiqod.
4. O'quvchilarga mohirlik bilan munosabatda bo'lish (pedagogik odob)Ogohlantirish choralari).
5. Rag'batlantirish va jazolash.

Mazkur yondashuvlarni o'zlashtirish bo'lajak pedagoglarning kelgusi faoliyati uchun muhim ahamiyatga ega.

Mavzu bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlari va savollar:

1. Yuqorida keltirilgan K.D.Ushinskiyning axloqiy tarbiya haqidagi fikrlarini konspekt qiling.

³ Pedagogika fanidan izohli lug'at. Xasanboyev J.va boshq.—T.:Fan va texnologiya. 2009.—188-b.

⁴ Ushinskiy K.D. Tanlangan pedagogik asarlar. — T. 1958.

2. K.D.Ushinskiy ta'lim-tarbiyaga doir eskicha yondashuvlar to'g'risida qanday fikr bildirgan?

3. K.D.Ushinskiyning axloqiy tarbiya vositalariga doir tavsiyalarini o'zlashtiring.

4. K.D.Ushinskiyning axloqiy tarbiyaga doir yana qanday yondashuvlarini bilasiz?

2. Ijodiy fikrlash metodi. Mazkur interfaol metodga ko'ra, muayyan mavzu vositasida ta'lim oluvchidan ijodiy fikrlash ko'nikmasi shakllantiriladi. Shu jihatdan quyidagi mavzu tasnifiga e'tibor bering:

Mavzu: K.D.Ushinskiyning bolalar mehnati to'g'risidagi qarashlari. Ushinskiy bolalar mehnati haqida gapirib, insonning to'g'ri rivojlanishidagi zarur shart – mehnatdir, deb hisoblagan edi. Uning fikricha “agar tarbiya kishini baxtli qilmoqchi bo'lsa, uni baxt uchun tarbiyalamaslik kerak, balki hayotdagi mehnat uchun tayyorlashi lozim”. Tarbiya kishida mehnatga muhabbat va odatni o'stirishi kerak.

Ushinskiy kishi o'z faoliyatida jismoniy mehnat bilan aqliy mehnatni birlashtirsa, juda foydali bo'lur edi, deb hisoblaydi. U o'quvchilar mehnati haqida gapirib, “O'qish mehnatdir va mehnat bo'lib qolishi, ammo to'la ma'noli mehnat bo'lishi lozim”, - deydi. U ta'limni ovunchoqlik, ko'ngil ochish yo'li bilan o'tkazishga, ba'zi pedagoglarning ta'limni mumkin qadar yengilroq qilishga harakat qilishlariga qarshi chiqdi. Bolalar o'qish davrida mehnatga, qiyinchiliklarni yenga olishga o'rganishlari kerak. “Faqat kichkina bolalarnigina o'yin vositasida o'qishga o'rgatish mumkin”, - deb yozadi Ushinskiy. Aqliy mehnat og'ir, o'rganmagan kishini tezda charchatib qo'yadi. Shuning uchun bolalarni kuchi yetadigan ishlar bilan sekin-asta o'rgatish lozim.

K.D.Ushinskiyning aqliy mehnatni jismoniy mehnat bilan qo'shib olib borish to'g'risidagi, o'qish va dam olishni to'g'ri tashkil etish haqidagi pedagogik fikrlari hozirgi kunda ham qimmatlidir.

Mavzu bo'yicha mustaqil ta'lim topshiriqlari va savollar:

1. K.D.Ushinskiyning mehnat to'g'risidagi fikrlarini konspekt qiling.

2. K.D.Ushinskiy jismoniy va aqliy mehnatni uyg'un olib borish bilan insonda ijodiy fikrlashni shakllantiradi, deb hisoblaydimi?

3. Sizningcha, jismoniy va aqliy mehnat ijodiy fikrlashni taqozo etadimi?

4. K.D.Ushinskiyning bolalar mehnati to'g'risidagi qarashlarini o'zlashtiring va amaliy faoliyatingizda foydalaning.

Demak, pedagog olim K.D.Ushinskiyning pedagogik merosini o'rganishda interfaol metodlarning o'ni muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Qarori. [//www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz).

2. Ushinskiy K.D. Tanlangan pedagogik asarlar. – T., 1958.

3. Ушинский К.Д. Полное собрание сочинения – М., 1991.

4. Pedagogika fanidan izohli lug'at. J.Xasanboyev va boshq. – T.: Fan va texnologiya. 2009.–188-b.

5. Mahkamov U.I., Ismoilova D.M. Tarbiya-shaxs kamolotida eng katta kuch. Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar 5-son ISSN 2181-7286 2020-y, dekabr.

6. Mahkamov U.I., Ismoilova D.M. Tarbiya-yuksak ma'naviyat beshigi. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 1 | ISSUE 4 | 2020 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804